


Xizmatlar sohasining rivojlanishi – Toshkent viloyatining farovonligining asosi

Hozirgi vaqtda xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish darajasi jamiyatning jadal rivojlanish mezoniga aylandi. Xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish va modernizatsiya qilish aholi turmush darajasini, investitsiya muhitini, ishbilarmonlik muhitini va biznesni rivojlantirishni yaxshilashga yordam beradi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yil yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 10 104,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida savdo xizmatlari (34,7 %), transport xizmatlari (23,0 %), moliyaviy xizmatlar (14,9 %), arxitektura, muhandislik tadqiqotlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (3,6 %) ustunlik qilmoqda.

2020-yil yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, % da






TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish (2020-yil yanvar-avgust oylari uchun)

| | Hajmi, mlrd. so'm | O'tgan yilga nisbatan % hisobida | Jami xizmatlar- dagi ulushi % |
|-------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------|----------------------------------------|----------------------------------|
| Jami xizmatlar | 10 104,2 | 100,2 | 100,0 |
| shu jumladan: xizmat turlari bo'yicha | | | |
| aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 283,7 | 133,3 | 2,8 |
| moliyaviy xizmatlar | 1 505,6 | 134,3 | 14,9 |
| transport xizmatlari | 2 320,3 | 94,1 | 23,0 |
| shu jumladan: avtotransport xizmati | 2 222,6 | 95,2 | 22,0 |
| yashash va ovqatlanish xizmatlari | 337,0 | 77,6 | 3,3 |
| savdo xizmatlari | 3 507,4 | 100,1 | 34,7 |
| ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 313,1 | 87,4 | 3,1 |
| ta'lim sohasidagi xizmatlar | 305,6 | 107,4 | 3,0 |
| sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar | 162,4 | 72,1 | 1,6 |
| ijara xizmatlari | 301,0 | 96,2 | 3,0 |
| kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar | 193,4 | 89,9 | 1,9 |
| shaxsiy xizmatlar | 251,7 | 91,1 | 2,5 |
| me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 368,3 | 95,2 | 3,6 |
| boshqa xizmatlar | 254,7 | 77,6 | 2,5 |

2020-yil yanvar-avgust oylarida alohida xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm




2020-yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, % da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha moliyaviy xizmatlar (134,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (133,3 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (107,4 %), savdo xizmatlari (100,1 %), bo'yicha yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Eng past o'sish sur'atlari esa yashash va ovqatlanish xizmatlari (77,6 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (72,1 %), tashkil etdi.

2020-yil yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da



Jami moliyaviy xizmatlar hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi (89,8 %) yetakchilik qilmoqda.


Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning asosiy qismini pul-kredit sohasida vositachilik xizmatlari tashkil etadi.

Bugungi kunda savdo-sotiq iste'mol bozoriga bo'lgan talabni shakllantirish jarayonining faol ishtirokchisiga aylandi.

Savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining sezilarli qismini tashkil qiladi.

2020-yil yanvar-iyul oylarida savdo xizmatlari hajmi 3 507,4 mlrd.so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 34,7 % ni tashkil etdi.

2020-yil yanvar-avgust oylarida savdo xizmatlari tarkibi, % da



Savdo xizmatlari tarkibiga avtomobillar va mototsiklardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega bo'lib, uning ulushi 69,0 % ni tashkil etadi.

Ulgurji savdo xizmatlarining (avtomobillar va mototsiklar savdosidan tashqari) ulushi 22,5 % ni tashkil etdi.

Avtomobil va mototsiklar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va mototsiklarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda umumiy savdo xizmatlarining 8,5 % ni tashkil qiladi.



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

2020-yil yanvar-avgust oylarida hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi

| | Jami | | | Aholi jon boshiga | |
|--------------------------|----------------------|-------------------------------------|-----------------------------------------------------------|-------------------|-------------------------------------|
| | Hajmi, mlrd. so'm | o'tgan yilga nisbatan % da | Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da | ming so'm | o'tgan yilga nisbatan % da |
| Toshkent viloyati | 10 104,2 | 100,0 | 100,2 | 3 423,1 | 98,7 |
| shaharlar: | | | | | |
| Nurafshon | 2 281,7 | 22,6 | 114,0 | 46 756,5 | 112,8 |
| Olmaliq | 506,2 | 5,0 | 96,2 | 3 846,6 | 94,7 |
| Angren | 439,1 | 4,3 | 86,6 | 2 322,2 | 85,4 |
| Bekobod | 352,7 | 3,5 | 96,3 | 3 669,9 | 94,8 |
| Ohangaron | 226,6 | 2,2 | 94,8 | 5 980,2 | 92,5 |
| Chirchiq | 602,5 | 6,0 | 101,6 | 3 820,7 | 100,6 |
| Yangiyo'l | 298,1 | 3,0 | 99,0 | 4 910,7 | 97,4 |
| tumanlar: | | | | | |
| Oqqo'rg'on | 157,3 | 1,6 | 99,5 | 1 495,0 | 98,1 |
| Ohangaron | 186,5 | 1,8 | 100,6 | 1 943,2 | 99,1 |



TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

| | Jami | | | Aholi jon boshiga | |
|-----------------|----------------------|-------------------------------------|-----------------------------------------------------------|-------------------|-------------------------------------|
| | Hajmi, mlrd. so'm | o'tgan yilga nisbatan % da | Jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi, % da | ming so'm | o'tgan yilga nisbatan % da |
| Bekobod | 178,3 | 1,8 | 99,6 | 1 129,2 | 98,0 |
| Bo'stonliq | 474,7 | 4,7 | 95,4 | 2 802,2 | 94,4 |
| Bo'ka | 135,2 | 1,3 | 98,6 | 1 073,3 | 97,1 |
| Quyi Chirchiq | 138,1 | 1,4 | 100,1 | 1 276,3 | 98,6 |
| Zangiota | 846,2 | 8,4 | 100,4 | 4 273,8 | 99,0 |
| Yuqori Chirchiq | 371,2 | 3,7 | 100,3 | 2 731,3 | 98,5 |
| Qibray | 976,5 | 9,7 | 97,6 | 4 858,4 | 96,3 |
| Parkent | 384,0 | 3,8 | 100,2 | 2 471,2 | 98,4 |
| Piskent | 153,5 | 1,5 | 99,4 | 1 518,1 | 97,9 |
| O'rta Chirchiq | 255,1 | 2,5 | 100,1 | 1 700,7 | 98,3 |
| Chinoz | 243,6 | 2,4 | 81,4 | 1 816,6 | 80,1 |
| Yangiyo'l | 305,3 | 3,0 | 100,2 | 1 449,5 | 98,7 |
| Toshkent | 591,6 | 5,9 | 92,5 | 3 266,9 | 90,9 |




TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Hududlar o'rtasida eng yuqori o'sish sur'atlari Nurafshon (114,0 %), Chirchiq (101,6 %), shaharlari, shuningdek Ohangaron (100,6 %), Zangiota (100,4 %), Yuqori Chirchiq (100,3 %) va Parkent (100,2 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng past o'sish sur'atlari esa Angren shahri (86,6 %) va Chinoz tumani (81,4 %) ga to'g'ri keladi.

2020-yil yanvar-avgust oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 3 423,1 ming so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 98,7 % ni tashkil etdi.

2020-yil yanvar-avgust oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar






TOSHKENT VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Joriy yilda viloyatda aholi jon boshiga ko'rsatilgan eng yuqori xizmatlar ulushi Nurafshon shahrida – 46 756,5 ming so'mni, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 112,8 % tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan eng kichik xizmatlar ulushi Ohangaron shahrida 5 980,2 ming so'mni, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan (92,5 %), Angren shahrida 2 322,2 ming so'mni, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan (85,4 %) shuningdek, Toshkent tumanida 3 266,9 ming so'mni o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan (90,9 %) va Chinoz tumanida 1 816,6 ming so'mni, o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan (80,1 %) tashkil etdi.

2020-yil yanvar-avgust oylarida hududlar bo'yicha jami xizmatlar hajmida hududlarning ulushi



Viloyatda eng katta ulush Nurafshon shahar (22,6 %), Qibray (9,7 %) va Zangiota (8,4 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Viloyatda eng past ulush esa Piskent (1,5 %), Quyi Chirchiq (1,4 %) va Bo'ka (1,3 %) tumanlarida kuzatildi.

2020-yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi



Boshqa xizmatlar
2,5 %



Savdo xizmatlari
34,7 %



Shaxsiy xizmatlar
2,5 %



Transport
xizmatlari
23,0 %



Aloqa va
axborotlashtirish
xizmatlari
2,8 %



Moliyaviy
xizmatlar
14,9 %



Ta'lim
sohasidagi
xizmatlar
3,0 %



Yashash va
ovqatlanish
xizmatlari
3,3 %



Kompyuterlar va
maishiy tovarlarni
ta'mirlash bo'yicha
xizmatlar
1,9 %



Ko'chmas mulk
bilan bog'liq
xizmatlar
3,1 %



Sog'liqni
saqlash
sohasidagi
xizmatlar
1,6 %




Me'morchilik
muhandislik
izlanishlari, texnik
sinovlar va tahlil
sohasidagi
xizmatlar
3,6 %



Ijara xizmatlari
3,0 %

2020-yil yanvar-avgust oylarida jami xizmatlarda kichik biznesning ulushi, % da



Viloyatda kichik biznesning eng katta ulushi, Piskent (98,6 %), Oqqo'rg'on (98,4 %), Bo'ka (97,9 %) va Quyi Chirchiq (97,0 %) tumanlarida kuzatildi. Viloyatda kichik biznesning eng past ulushi Nurafshon shahrida (12,9 %) tashkil etdi.

Toshkent viloyat statistika boshqarmasi

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: M.Tastanbekov

Tel.:(71) 202-86-72